

## FRANSUZ TILI DARSLARIDA O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Rajabboyeva Dilshoda**

Mirzo Ulug`bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Universiteti Xorijiy

Filologiya fakulteti Fransuz tili filologiya 4-kurs talabasi.

**Annotatsiya:** Bu maqolada, chet tillarini o'rganishda o'yinlardan foydalanishning muvaffaqiyat darajasiga oid fikrlar bayan etiladi.

**Kalit so'zlar:** lingvistik o'yinlar, kichik guruhlar, kungaboqar o'yini, doska, birgalikda o'naymiz, fikr.

**Аннотация:** В данной статье обсуждается успешность использования игр в изучении иностранного языка.

**Ключевые слова:** лингвистические игры, малые группы, игра «Подсолнух», доска, поиграем вместе, идея.

**Annotation:** This article discusses the success rate of using games in foreignlanguage learning.

**Keywords:** linguistic games, small groups, sunflower game, blackboard, let's play together, idea.

### Kirish

Tez rivojlanayotgan mamlakatimizda xorijiy tillarni puxta egallagan yuqori malakali mutaxassislariga talab ortib bormoqda. Shu bois boshlang'ich ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan davrda chet tillarini o'qitishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'tgan yillarimiz haqida fikr yuritar ekanmiz, biz ta'limning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun ta'lim uslublarimizni doimiy ravishda yangilash va moslashtirish muhimligini tushunamiz. Bugungi dinamik ta'lim manzarasida o'quvchilarni qiziqtirish va ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish ularni yuqori yutuqlar sari yetaklashda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, biz uchun samarali pedagogik texnika bilan jihozlangan malakali o'qituvchilarga ega bo'lish juda muhimdir.

Chet tillarini o'rganish va o'rgatish uzoq va murakkab jarayon bo'lib, izchil harakat va o'z-o'zini takomillashtirishni talab qiladi. Til o'qitishda turli interfaol usullardan foydalanish o'rganishni qiziqarli va samarali qiladi, og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Sinfda o'quv o'yinlarining kiritilishi o'quvchilarning nutq mahoratini oshirish va tildan foydalanishga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan.

### Muhokama va natijalar

Tajribadan ma'lumki, o'yinlar tasavvurni kengaytiradi va tilni o'zlashtirishni osonlashtiradi, maqsadli tilda fikrlashni va gapirishni rag'batlantiradi. O'yinlar so'z boyligini mustahkamlashga imkon beradi va kichik guruh faoliyati yoki butun sinf mashqlari uchun moslashtirilishi mumkin, bu esa o'rganish tajribasini boyitadi. Bundan tashqari, o'yinlardagi individual muvaffaqiyatlar talabalarga chinakam qoniqish bag'ishlaydi, jamoaviy o'yinlar hamkorlikni rivojlantiradi va tilning ravonligini oshiradi.

Chet tillarini o'rganish va o'rgatish uchun ishlatiladigan o'yinlar yoki o'yin uslubidagi mashqlar, so'zlarning o'rganishni qiziq va oson qilish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Bu sababli, har bir insonning o'zini haqiqiy chet tili o'qituvchisi sifatida ko'rib chiqishni istaganini hisoblayman. Ya'ni, har doim bir xil o'yinlardan foydalanmay, o'quvchilarni bilimlari bo'yicha qoniqtirish, ularning so'zlarini har safar yangilayishiga, qabul qilishiga, yangi so'zlar yaratishiga va umumiy ravishda darsni yanada qiziqarli va maqbul qilishiga imkon beradi.

Bu turdagi darslar va amaliy mashqlarda o'quvchilar hech qachon qiziqib qolmaydilar va darsga to'liq qatnashadilar. Ular yana keyingi darsni kutish bilan birga darsni tezda orzaydilar.

Quyidagi misollar orqali, dars bo'sh vaqtlarida ingliz tili o'rganuvchilar uchun ishlatiladigan ba'zi o'yinlarni ko'rsatishni istayman va kelajakda ingliz tili o'qituvchisi bo'lishni istagan tengdoshlarimga maslahat beraman:

"Kungaboqar" o'yinida o'quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo'linadi. O'qituvchi mavzu bo'yicha muammo beradi. Har bir guruh kungaboqar yaratadi va uning markaziga doira joylashtiradi. Guruhlar umumiy muammolarni yozadi va uni doiraga qo'yadi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar fikrlarini yozib, uni yuqori joyga qo'yadi. Bu usul orqali, o'qitilgan mavzu tushuntiriladi, mustahkamlanadi, takrorlanadi va o'quvchilar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalaniladi.

Bir necha ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlaydigan topshiriq juft-juft bo'lib bajariladi. Birinchi o'quvchi o'z ismini aytadi, keyin ikkinchi o'quvchi o'zi va boshqalarning ismini ilova qiladi. Masalan: "My name is Jeremie." "His name is Jeremie and my name is Nicole." O'yin davomida, bu turdagi o'yinlar o'quv yili boshida yangi tanishuvchi o'quvchilar bilan o'tkazilishi mumkin. Shunday qilib, ular ingliz tilida o'z va boshqalarining ismlarini o'rganadilar.

"What is your name? What is your hobby?" o'yinida ishtirokchilar doira shaklida o'tiradilar. Bu uchun yumshoq ko'ptokcha kerak bo'ladi. Boshlovchi ko'ptokni ishtirokchilardan biriga uzatadi. O'quvchi ko'ptokni olganida o'zi haqida gapiradi. So'ngra u ko'ptokni boshqa ishtirokchiga uzatadi. Shartni bajarolmagan o'quvchi esa o'yindan chiqadi. Masalan: "My name is Ruslan. I like drawing pictures." "My name is Anne. I like reading books." Bunda "sing" (raqs qilish, futbol o'ynash, musiqa tinglash, kinoga borish, dramada o'tish, shatranj o'ynash) kabi variantlar mavjud.

Jamoa o'yinlari oldukcha murakkab bo'lishi mumkin, va o'quvchilar lug'atdan foydalanishlari mumkin. Lekin bu o'yinlarni o'tkazish uchun xususiy qo'llanmalar talab qilmaydi. O'yin ishtirokchilariga qog'oz va qalam kerak bo'ladi.

"Birgalikda o'qiyamiz" texnikasi bu o'quv guruhlari orasida amalga oshiriladigan bir usuldir. Bu texnika orqali o'quvchi guruhlari kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir kichik guruhda bir ekspert bo'ladi va uning vazifasi boshqalarga o'rgatishdir. Har bir guruhning maqsadi, boshqa guruhlar ishtirokchilarining mavzu bo'yicha bilimlarini to'liq o'zlashtirishga yo'naltirilgan.

"Birgalikda o'qiyamiz" texnikasidan foydalanish jarayonining tuzilishi quyidagicha bo'ladi:

Bilim darajasiga qarab 3-5 kishidan iborat bo'lgan har xil turdagi guruhlarini tuzish.

Har bir guruhga bitta topshiriq berish.

Har bir guruh uchun umumiy topshiriq taqsimlanadi.

Barcha guruh topshiriqlarini bajaradi.

Barcha guruh a'zolarining mini-ma'ruzalarini tinglayadi.

Umumiy natijani shakllantirish va uni taqdim etishga tayyorlanadi.

Bu o'yinlardan tashqari, quyidagi mashq turlaridan ham foydalanilsa kutilgan natijalarga erishish mumkin:



Rasmlarni berilgan so'zlar asosida joylashtirish.  
Juft bo'lib ishlang, so'z birikmalarini dialoqlarda qo'llash.  
Mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar (o'z uy yoki kvartirangizni tasvirlash, chizish yoki yozish).

Dialoqlarni tinglang va sahnalashtiring.

Tasvirdagi kamchilikni toping. Rassom qanday xato qilganini topib, unga xat yozing.

Fikrlarni eshiting va unga o'z munosabatingizni bildiring.

Va hokazo, bunday mashq turlarini ijodiy yondoshgan holda yana davom ettirish mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytish mumkin, sinfda tanishuv va interaktiv o'zlashtirishni kuchaytirish uchun o'qituvchi oyda bir marta o'yinlar natijasini elon qilib borishi va final musobaqasini o'tkazishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin ayni paytda, ahamiyatli bo'lishi kerakki, barcha o'yinlarda eng muhimi g'alaba emas, balki ishtirok etish jarayonidir. Barchaga muvaffaqiyatli darslar berishni maqsad qilaman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. J. Jirardet, Jean-Marie Cridlig. "Panorama de la langue française " Clé International, Paris 2004.
2. Jalolov J.J. Chet tilo,,qitishmetodikasi. T.:2012.
3. Xoshimov O,, I. Yoqubov. Ingliz tili o,,qitish metodikasi T.: 2003 y.
4. Рогова Г.Б., Рабинович Ф.М., Сахарова Т.Э. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. Москва: Просвещение, 1991 г.
5. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 452-459.
6. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
7. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 3008-3020.
8. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Т. 9. – №. 1. – С. 4943-4952.
9. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
10. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – Т. 3. – №. 08.05. – С. 187-190.
11. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
12. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
13. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.

14. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
15. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
16. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing "Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
18. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
19. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
20. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
21. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023)